

RAMAZON BOBOKALONOV

NAFSGA QARSHI ISYON



RAMAZON BOBOKALONOV

NAFSGA QARSHI ISYON

Ilmiy-ommabop risola

Risola o'rta ymymta'lim maktablari o'quvchilari, litsey va kollej talabalari, til va adabiyot o'qituvchilari, shuningdek, ilm-ma'rifat fidoyilari uchun mo'ljallangan.

Ilmiy-ommabop risola Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 28 dekabr 2019 yil 2-son yig'ilishi qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

Risola ilk marotaba Buxoro viloyat «Milliy Tiklanish» demokratik partiyasi Buxoro viloyat Kengashi yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan «Til, milliy g'urur va ma'naviyat» ilmiy-ommabop risolasi tarkibida nashr etilgan.

Muharrir

*R.R. SAYFULLAYEVA, falsafa fanlari doktori,
professor.*

2022-yil

«Dunyo kitobdir, va sayohat qilmaganlar uning bir sahifasini o'qigan xolos.»

Avgustinus Sangtus

SO'Z BOSHI

«O'rta Osiyo xalklari «SHarq Renessansi» deb atalmish IX-XV asrlar davomida YUnionistonning tabiiy-ilmiy va falsafiy qadriyatlaridan keng va ijodiy foydalanib, shunday madaniy boylik yaratdilarki, ilmiy izlanishlar va badiiy ijodning haqiqiy yuksak saviyasini yaratgan Forobiy, Rudakiy, Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek kabi donishmand olimlar, shoirlarning ijodiy jasorati o'laroq, u jahon madaniyati xazinasiga kirib, dunyo tamadduni taraqqiyotining zarur va muhim halqasiii tashkil qildi»¹

Movarounnahrda islom dini mustahkam mavqega ega bo'lgach, bir tomonidan, turli diniy ta'limotlar, xususan, kalom maktablari yuzaga keldi, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda asosiy e'tibor tafsir, hadis va fiqh ilmlariga qaratildi, ikkinchi tomondan esa islomiylar rivoji mazkur hududda tasavvuf oqimining yuzaga kelishi va keng tarqalishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Musulmon SHarq mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borgan tasavvuf ta'limoti fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XI asrdan boshlab SHarqning deyarli barcha taniqli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik

¹ Хайруллаев М.М. «Фараби (эпоха и учение). Т., «Узбекистан», 1975. с. 167.

g'oyalardan ruhlandilar. SHularni nazarda tutib, atoqli olim E.E.Bertels qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon SHarqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan SHarqning o'zini ham anglash qiyin.»² Muallif shunga qo'shimcha qilib, Islom dinini ham tasavvuf ta'limotisiz bilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

«Islom madaniyatiga yirik tasavvuf allomalarini etkazib bergan Markaziy Osiyo maktabi faoliyati XII asrdan to XX asr boshlarigacha o'lka ijtimoiy hayotida o'zining yuqori mavqeini saqlab qola oldi, desak xato bo'lmaydi. Bu maktab o'z taraqqiyoti davomida paydo bo'lish, mahalliy madaniyat bilan uyg'unlashish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda etakchilik qilishdek bosqichlarni bosib o'tdi. Ahmad YAssaviy (1105–1166/67), Abduxoliq G'ijduvoniy (1103–1179), Najmuddin Kubro (1145–1221), Bahouddin Naqshband (1318–1389), Alouddin Attor (vaf. 1400), Xoja Muhammad Porso (1345–1420), Pahlavon Mahmud (XIV asr), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490), Mir Alisher Navoiy (1441–1501), Maxdumi Azam Kosoniy-Dahbidiy (vaf. 1542), Lutfulloh CHustiy (vaf. 1571), Boborahim Mashrab (1640–1711), Dukchi Eshon (vaf. 1898) kabi tasavvuf ilmini nazariy va amaliy jihatdan boyitgan buyuk mutafakkirlarning fikrlari, ularning mamlakat hayotida faol qatnashgan etuk tarixiy shaxslar sifatidagi diniy, ma'naviy-ijtimoiy va siyosiy qarashlari, albatta, bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.»³

² Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1995. – С. 54.

³ Ҳасан Пўлатов, Мамаджон Маматов. Tasavvuf tarihindan lavҳалар. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент — 2011.

Ushbu mo''jaz ilmiy-ommabop risolada Islom va tasavvuf ta'limoti bilan hamohang diniy-irfoniy qarashlarni to'g'ri idrok etish, qadriyatlarimizga hurmat bajo keltirish va ularni sharaflash, ma'naviy boyligimizga putur etkazishning oldini olish, jamiyatimizda yakdil bo'lib, dinu diyonatimiz sofligi uchun kurashishga da'vat etish masalasi ko'ndalang qo'yilgan va tasavvuf ta'limotining qonun-qoidalari aniq dalil-misollarda yoritilgan.

Dinni hurmat qilish ulug' qadriyat sanaladi. Risolada tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan Islom diniga hurmat bajo keltirish, o'zligini anglashda va qadriyatlarimizni sharaflashda, ma'naviy boyligimizga putur etkazmaslikda, jamiyatimizda ma'rifat, qadriyat masalalarida yakdil bo'lish lozimligi kabi tarbiyaviy ahamiyatga molik fikr-mulohazalar asoslab berilgan. Aniqroq qilib aytganda, ulammolarning donishmandligiga tayanib, Islom dinini asliyatda tushunish, shuningdek, diniy ekstremistik qarashlarga qarshi turish, ma'rifat va haqiqatni himoya qilish bosh maqsad va muddao hisoblanadi.

“Haqiqat” tasavvufning eng yuqori oliy maqomidir. Bu bosqichga erishish sanoqli insonlarga nasib etgan. Sharq tasavvufi tarixida mutasavvuflikda Yusuf Hamadoniy nomi juda mashhur bo'lgan va yassaviya, kubraviya, naqshbandiya tariqatlarining ildizlari ham o'sha ma'naviyat chinorining bosh tomiriga borib taqaladi. Yusuf Hamadoniy, Najmaddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshbandiy, Xo'ja Ahmad YAssaviy, Hakim ota Sulaymon Boqirg'oniy singari tabarruk zotlar Turon zaminining shon-shuhratini butun musulmon olamiga yoygan ma'naviy chinorlar hisoblanadi. SHayx Najmaddin Kubro

mardlik va jasoratda doimo faqirlarga yordam berishi bilan nom taratgan. O'z xalqiga muhabbati, milliy g'urur, milliy iftixor his-tuyg'ularini shakllantirishga namuna bo'lgan piru vali hisoblangan. Ularning o'gitlarini bilmay turib, Islomni idrok etish mumkin emas.

Ilmiy-ommabop risola diniy e'tiqod yo'lini qalb amri bilan tanlamoqchi bo'lgan barcha musulmonlarni dinni ham, tasavvufni ham ongli ravishda anglab etishlariga, fahm-farosot bilan e'tiqod yo'lini tanlashlariga amalba yordam beradi.

R.R. SAYFULLAYEVA, falsafa fanlari doktori, professor.

Kirish

Nafs tarbiyasi tessavvuf tarbiyasi bilan uyg'un mazmun kasb etadi. Shuning uchun nafs tarbiyasi eng hassos mavzulardan biri hisoblanadi. Bu mavzuda ko'plab olimlar, tariqat mashoyixlari so'z yuritganlar, qator kitoblar va risolalar bitganlar.

Diniy va dunyoviy bilimlarda nafsga bo'ysunmaslikda inson uchun juda ko'p ko'rsatma – o'gitlar qoidalashtirilgan. Nafsga ergashish esa yomonliklarning poydevori hisoblanadi. Nafsga ergashmay, uni tarbiyalagan kishi yutuqqa, muvaffaqiyatga yetishadi. Gur'oni Karimda : "Haqiqatda, kim u (nafs)ni poklasa, yutuqqa erishadi". ("Shams" surasi, 9 - oyat). "... O'z havo ni nafsga ergashgan kishidan ko'ra adashganroq kimsa bormi?!" ("Qasos" surasi 50 - oyat), degan qat'iy diniy talablar qo'yilgan. Donishmand xalqimiz "Mening nafsim balodir. O'tdan cho'qqa solodir" deb ham beziz aytmagan. Ulamolar nafs istaklariga teskari harakat qilishni ibodatning boshi, deydilar. Tarixda o'tgan ko'plab allomalar, mashoyixlar, ruhiy tarbiya ulamolari nafslarini isloh etish bilan oliv martabalar, maqomlarga erishganlar.

Tasavvuf nafsga qarshi turadigan tariqatlar mujmuidir. Taniqli tasavvufshunos olim N.Komilov ta'kidlaganidek: «Tasavvuf, bir tomonidan, din va shariat, ikkinchi tomonidan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir.⁴

⁴ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.:Мовароуннахр. Ўзбекистон, 2009, 245-6.

TASAVVUF HAQIDAGI TA'RIF VA TAVSIFLAR

«Tasavvufda uchta asosiy yo'nalish ajratiladi: sub'ektiv idealizm⁵; ob'ektiv idealizm⁶; panteizm⁷. Panteizm niqobi ostida so'fiylar yorqin ifodalangan, nisbatan ilg'or materialistik goyalarni targ'ib etganlar.⁸ SHu asnoda tabiiy, ilmiy, falsafiy bilimlar rivojlangan.

Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asarida: «Allohning farzidan bandani qaytaradigan ikki narsa bor, birinchisi o'limdan qo'rqish, ikkinchisi dunyon sevish»ning mohiyatini ta'riflab beradi . Bu kitob ikki illatning muolajasi bilan shug'ullanadi, ya'ni «dunyoning sevgisini va o'limdan qo'rqish»ni muolaja qiladi. Qachonki shu ikki narsa muolaja bo'lsagina banda Allohning farziga amal qiladi. SHuning uchun bu kitob tasavvuf olamining eng mo'tabar kitobi sanaladi.»⁹

«Tasavvuf uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

- birinchidan, idealistik metafizikani psixologik mashqlar tizimi bilan uyg'unlashtirish - askeza, o'z e'tiqodini, barcha jismoniy va ruhiy ma'naviy kuch-g'ayratini safarbar etish;
- ikkinchidan, so'fiylar tashkilotida tariqat yo'liga boshlovchi pir-murshidni hamda u yoki bu tarzda ularga yaqinlashtirilgan (qatorga qo'shilgan) o'quvchilari - muridlarining so'zsiz ishtiroki;

⁵ Бистомий, Халлож фалсафаси.

⁶ Фаззолий, Аттор, Ибн Арабий, 1 Из истории суфизма: источники и практика (под ред. акад. М.Хайруллаева. Т.: «Фан», 1991. с. 16. 2. Азиз Наринбаев. Изб.произв. Бишкек. «Илм», 2004.

⁷ Саъдий, Жомий, Бедил фалсафаси

⁸ Азиз Наринбаев. Изб.произв. Бишкек. «Илм», 2004. с. 202.

⁹ Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. «Ихёу улумиддин», «Ғафур Ғулом» **нашиёти:** 2014 , 2- 512 б !

- uchinchidan, «Ilmi g'ayb» to'g'risidagi ta'limotga rioya qilish, ya'ni maslakdosh yoki sadoqat bilan kirishgan odamlar asta-sekin muttasil tarzda mistik bilish, ishq-muhabbat va askeza orqali xudoga yaqinlashish va pirovard natijada xudo bilan qo'shilib ketish. Bu xususiyatlar olamni mantiqiy-aqliy bilishni inkor etadigan intuitiv bilishga, tajalliga, ba'zan ekstatikaga (jazbaga), g'ayriaqliy hodisalarga (gipnoz, telepatiya) qiziqish, intilish tasavvufga xos belgilarni bildiradi».¹⁰

Tasavvuf ta'limoti Movarounnahr madaniyati va adabiyoti ilmi ta'sirida taraqqiy etgan va yangi xalq g'oyalalarining shakllanishiga turtki bo'lган. SHunga ko'ra, Movarounnahrning islam madaniyatida tasavvufning tutgan o'rni beqiyosdir. SHu paytga qadar tasavvuf ta'limoti, tarixi va ilgari surgan g'oyalari haqida ko'plab mahalliy olimlar samarali mehnat qilganlar. Jumladan, sharqshunoslar N.Komilov, I.Haqqulov, Orif Usmon, S.G'anieva, B.Nazarov, B.Bobojonov va boshqa bir qator tadqiqotchilarining ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.¹¹

Arablar yurtida paydo bo'lib, X–XI asrlarda gurkirab rivojlangan Hallojiya, Junaydiya, Suhravardiya, Uvaysiya, Qodiriya tariqatlari ta'siri ostida Markaziy Osiyoda ham XI–XII asrlarga kelib YAssaviya, Kubraviya, Xojagon tariqatlari paydo bo'ldi va zo'r shiddat bilan rivojlandi.

Markaziy Osiyoga tasavvuf ta'limotining kirib kelishi tariqatlar tarixini yoritish an'anasiga ko'ra o'z davrining so'fiy allomasi Xoja YUsuf Hamadoniy (1048–1141) nomi bilan bog'liq. YUsuf Hamadoniy

¹⁰ Азиз Наринбоев, Изб.произв. Бишкек. «Илм», 2004. с. 202.

¹¹ Сўфийлик таълимотининг Ўрта Осиёда пайдо бўлиши тарихи. Mir Arab Oliy madrasasining rasmiy veb sayti. 2156, 12.03.2018

maktabidan ilmu irfon sabog'ini olgan Ahmad YAssaviy va Abduxoliq G'ijduvoniyalar mintaqada tasavvuf taraqqiyotining keyingi bosqichlarida muhim o'rinni tutdi va ikki mustaqil tariqat: YAssaviya va Xojagon-Kubraviya (keyinchalik Kubraviya-Mujaddidiya) tariqatlariga poydevor qo'yildi. Bundan tashqari Xorazmda «valiytarosh» unvoni bilan mashhur bo'lgan Najmuddin Kubro (1145–1221) mustaqil ravishda Kubraviya tariqatiga asos soldi.¹²

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, inson qarama-qarshi ikki asos – modda va ruhdan iborat. SHuning uchun insonda ana shu ikki asosning xususiyatlari mavjud. Agar *moddiylik g'alaba qilsa, insonda hayvoniylilik* va agar *ruh tomoni ustun kelsa, ilohiylik rivojlanadi*. Ruh jism quliga aylanmasligi kerak, aksincha, jism ruh uchun bir asbob-ulov, vosita bo'lib xizmat qilsin. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruhiy – psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllandi, tariqat, ma'rifat, haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmuasi tuzildi — tasavvuf alohida ilm sifatida qapop topdi. So'fiylar dastlabki paytlarda tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar “iboraga kelmaydigan ishoratlar” deb hisoblagan bo'lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so'fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug'ildi. Natijada tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, so'fiylarning

¹² Сўфийлик таълимотининг Ўрта Осиёда пайдо бўлиши тарихи. Mir Arab Oliy madrasasining rasmiy veb sayti. 2156, 12.03.2018

odam va olam mohiyati aloqa-muomalasi, tavhid – vahdat masalalari munozaraga sabab bo'ldi.

Imom G'azzoliy dinga bevosita aloqador yigirmata falsafiy masala bo'yicha faylasuflar bilan bahs yuritgan. «Uchta masalada: *olamning abadiyligi* va *moddaning* (materiyaning) *birlamchiligi, xudoning xususiy hodisalar haqidagi bilimga ega emasligi* to'g'risidagi falsafiy luqmalar borasida jismning qayta tirilishi va qiyomat kunini faylasuflar inkor qilishi borasida Imom G'azzoliy faylasuflarni qoralaydi va ularni kofirlikda ayblaydi. Sababiylit falsafiy kategoriyasi to'g'risida Imom G'azzoliy doimo bir nuqgai nazarda bo'lган: *sabab qonuniyatdan, tabiat taraqqiyotidan emas, Ollohning irodasidan kelib chiqsagina, haqiqiy bo'ladi.*¹³»¹³ deb tushuntiradi.

Xojagon tariqati XIV asrga kelib, Bahouddin Naqshband tomonidan yanada takomillashtirildi. Bu esa Markaziy Osiyoda mo'g'ullar hukmronligidan keyingi diniy-ma'naviy hayotning yangicha yo'nalishda shakllanishiga asos bo'ldi. Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy kabi yirik shaxslarning faoliyati esa Xojagon-Kubraviya tariqatining keyingi vakillariga ijobiy ta'sir qildi va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun turtki bo'ldi.

Naqshbandning “*Ko'ngling Allahda bo'lsin, qo'ling mehnatda*” degan shiori hunarmand, dehqonlarda dinga, dindor va tariqatchi so'fiylarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat paydo qildi.

Ongli faoliyat yuritishda bular muhim ahamiyat kasb etadi.

¹³ Яна қаранг: Каттаев К. “Тасаввуф алломалари” Тошкент. Фафур Ғулом номидаги нашиёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 320 б.

HOJA BAHOUDDIN NAQSHBAND O'G'ITLARI

Qalblarning buyukligi aslida bir. Lekin ulardagi bilimning kattaligi farqli...

Orifning qalbidek keng va katta bo'lgan boshqa narsa yo'q. Yer va osmonlar Orifning qalbiga bir nuqta kabidir.

Yigirma yildir rangim va sifatim yo'qdir. Ham birortasi meni bilmoqni istasa, shu unda ham rangim, sifatim ma'lum emas...

Biz suyukliga etkarishga vositamiz. Yo'lga kirganlarga lozimdirki, oqibat bizdan ayrilib, suyukliga yetishsinlar.

Bu yo'lda menga faqirlilik katta yordam qildi. Bizni faqirligimiz tufayli bu eshikdan ichkariga oldilar. Nimaga erishgan bo'lsam, shu sifatim bilan erishdim...

TASAVVUF – NAFSGA QARSHI ISYON

“Tasavvuf qalbni sof tutish, yomon xulq-atvordan poklash va yaxshi axloq bilan bezatish deganidir. Tasavvuf hol ishi bo’lgani uchun buni boshidan kechirgan odamlargina biladi.”

Hikmatulloh Ibrohim:

Taniqt tasavvufshunos olim N.Komilov ta’kidlaganidek: «Tasavvuf, bir tomon dan, din va shariat, ikkinchi tomon dan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog’liq holda rivojlanib kelgan o’ziga xos ta’limotdir.¹⁴

«Tasavvuf ahli o’z darajalariga ko’ra tasavvufni turlicha ta’riflaganlar.

Ba’zilarini quyida keltiramiz:

- Tasavvuf dinning amrlariga bo’ysunib, taqiqlaridan saqlanib qalbini yomon axloqdan poklab, yaxshi axloqqa to’ldirmoqdir.

- Tasavvuf o’lmay turib o’la olish holatidir.

- Tasavvuf taqdiriga rozi bo’lmoqdir.

- Tasavvuf namoz, ro’za va kechalari ibodat qilish degani emas.

Bularni bajarish har bir musulmonning qullik vazifasidir. Tasavvuf insonlarni ranjitmaslikdir. Buni uddalagan kishi vosil bo’ladi, ya’ni maqsadiga qovushadi.

- Tasavvuf insonni ibodatlarda kerak bo’ladigan ixlosga va insonlar bilan munosabatda kerak bo’ladigan go’zal axloqqa erishtiruvchi yo’ldir. Insonlarga bu yo’lni faqat murshidi komillar o’rgatadi.

- Tasavvuf Rasulullohning muborak qalbidan chiqib, avliyolarning qalblariga keladigan ilmlardir.

¹⁴ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.:Мовароуннахр. Ўзбекистон, 2009, 245-6.

— Tasavvufning etti yuzdan ortiq ta’rifi bor. Lekin asosi ahammni muhimdan avvalroq bajarish demakdir. YA’ni qilinishi muhim bo’lgan amal va ishlar ichidan eng muhimini ajrata olish va bajara olish san’atidir.»

«Hujjatul Islom Abu Homid G’azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asarida: «Allohning farzidan bandani qaytaradigan ikki narsa bor, birinchisi o’limdan qo’rqish, ikkinchisi dunyoni sevish». Bu kitob ikki illatning muolajasi bilan shug’ullanadi, ya’ni «dunyoning sevgisini va o’limdan qo’rqish»ni muolaja qiladi. Qachonki shu ikki narsa muolaja bo’lsagina banda Allohning farziga amal qiladi. SHuning uchun bu kitob tasavvuf olamining eng mo’’tabar kitobi sanaladi.»

«Hujjatul Islom Abu Homid G’azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asarida: «Allohning farzidan bandani qaytaradigan ikki narsa bor, birinchisi o’limdan qo’rqish, ikkinchisi dunyoni sevish». Bu kitob ikki illatning muolajasi bilan shug’ullanadi, ya’ni «dunyoning sevgisini va o’limdan qo’rqish»ni muolaja qiladi. Qachonki shu ikki narsa muolaja bo’lsagina banda Allohning farziga amal qiladi. SHuning uchun bu kitob tasavvuf olamining eng mo’’tabar kitobi sanaladi.»¹⁵

Hazrati Amir Temur qaynog’asi amir Husayndan engilib, Qashqadaryo tog’larida 40 nafar yigit bilan qochib yurganlarida cho’ponlar u kishini Termizga yo’llaydilar. “Termizga boring, u arning sayyidlari bor, ularga bay’at qiling, ular sizga yordam beradi,» deyishadi. Amir ular aytgandek qiladilar, Termiz sayyidlari u kishiga o’zlarining

¹⁵ Ҳасан Пўлатов, Мамаджон Маматов. ТАСАВВУФ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент — 2011.

sodiq muridlarini jangchi qilib berishadi. «Sodiq muriddan yaxshi jangchi bo'lmaydi, chunki u o'limdan qo'rqlamaydi, Alloh rizosi uchun hech qanday dushmanidan qo'rqlamaydi.» Amir ketma-ket g'alabalarga erisha boshlaydi. Ba'zi tarixchilar «U kishi oxirida havolanib ketdi», deyishgan. Muridlarga biroz qo'pol muomala qilib qo'yganlaridan keyin muridlar arazlab, Termizga ketib qolishadi. Amir yana mag'lubiyatga yuz tuta boshlaydi. Ikkinci marotaba Termizga borib, Termiz sayyidlarining oldida tiz cho'kib, tavba qiladi va bay'atini qaytadan yangilaydi. SHunda Termiz sayyidlari amirga o'zlarining eng kichik vakilini – Sayyid Baraka rohimahullohni qo'shib bergenlar. «Endi birimiz doim yoningizda yuradi, sizni tarbiya qiladi, sizga yordam beradi», deyishgan. Buni hozirgi tarix fani ham tan oladi. Amir Temurning qo'shinlari ham, harbiy taktikasi ham yordam bermay qolgan vaqtda Mir Sayyid Barakaning ta'limotlari bilan u kishi g'alaba qozonib ketganlar. Samarqandga borsangiz, Go'ri Amirda buning haqiqatini ko'rasiz. Dunyoning yarmidan ko'pini egallagan Amir Temur hazrati Sayyid Barakaning oyoqlari uchida yotibdilar. O'zlari pirimning oyog'ining uchiga qo'yasizlar deb vasiyat qilganlar. Sayyid Baraka Termiz sayyidlarining eng kichigi bo'lganlar.

Payg'ambarimiz: " Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb oxirat ishini, oxiratini deb dunyo ishini bark qilmaydigan va odamlarga malolligini tushirmaydiganlaringizdir".

So'fiylik bu – oilani, atrofni unutib, tarki dunyo qilish emas, balki yaxshi xulq kasb etib, ezgulik dasturida umr o'tamoq deganidir. Rasululloh (s.a.v.) dan rivoyat qilingan hadisi sharifda shunday deyiladi: " Islomda tarkidunyochilik (rohiblik) yo'q". So'fi Olloyorning:

«SHariatsiz kishi uchsa havoga,
Ko'ngil berma aningdek xudnamoga»

misralari esa bugun o'zini “pir” deb e'lon qilingan, sunnatga yuzaki munosabatda bo'ladigan, odamlar ko'ngliga qutqu solish, murid ovlash, davlatu savlat ilinjida to'rt tomon izg'ishni odat qilgan kimsalar haqida aytilgandek go'yo.

Soxta shayxlar, johil, ilmsiz so'filer va botil tariqatlar tasavvufda qattiq tanqid ostiga olinadi. Ularga ergashmaslikka da'vat qilinadi. Tariqat asoschilari va ulug' valiyalar Qur'on va hadisga asoslanmagan har qanday tariqatni rad etadi va botil sanaydi. Johil, nodon va takabburlar o'zlarni tariqat ahli sanasalar ham, ununing fayzidan bebahradirlar.

“Aslida, falsafaning asosiy vazifasi – inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunday dunyoqarash biror-bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishontirish, xilma-xil fikrlarni o'rtaga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.”¹⁶

Falsafiy silsilaning tagzamini **yasaviya, kubraviya** va **naqshbandiya** tariqatlariiga aloqador va *Allohning Zikri* masalasi bilan uyg'un bog'liqdir. **Zikr** masalasi Islom va Tasavvuf ta'limotida alohida o'rinn tutadi. Tasavvuf islomni ilmiy asoslab tushunishga yordam beradi. CHunonchi, tariqat yo'li, bu halollik va pokanish yo'li hisoblangan. Buni aniqlash uchun quyidalarga e'tibor qaratish muhim:

¹⁶ Фалсафа асослари. – Т.: “Ўзбекистон” Нашриёт-Матбаа ижодий уйи, 2005

1. Islomni to'g'ri fahmlab idrok etish uchun, eng avvalo, tassavvuf ni bilish lozim. Bu hozirgi plyuralizm davrida yoshlar tarbiyasi va diniy aqidaparastlikka kurashishda ishonchli quroq bo'lib xizmat qiladi. Tasavvufning ko'pgina nazariy asoslari, jumladan, *yassaviya*, *qodiriya*, *kubraviya*, *naqshbandiya* Markaziy Osiyda maromiga etdi va ilmiy-ijtimoiy holatiga ko'ra bir-birini to'ldirib sayqal topib rivoj topdi. Ma'lumki, Abu Nasr Farobiy, Mansur Halloj davridan boshlab, ya'ni IX asr oxiri va X asr boshlariga kelib, musulmon olami uchun tasavvufning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqildi. So'fiylarning (Farobiy talqinida "sofiylar") amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tabdir-usullari shakllandi. SHARIATdan keyin TARIQAT, MA'RIFAT, HAQIQAT degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu to'rt bosqichiga oid qarashlar majmui tuzildi – tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi.

Tassavvuf, bu – so'fiylik ta'limoti (tasavvuf arabcha, 1. Jun libos kiyish. 2. *Falsafiy*. Zuhdu taqvoda jun libos kiyib, pok bo'lish uchun nafsoniy xohishlardan, dunyo noz-ne'matlaridan voz kechib, Allohga talpinish, so'fiylik, vahdoniyat,¹⁷ ya'ni Allohning yakkaligiga iqror bo'lib, unga intilish va unga erishib singish). Tassavvuf islom dini asosida shakllangani uchun, bu to'rt bosqichli *ibodat* (arabcha, Allohga talpinib, dinu shariat farzlarini bajo keltirish)dir. YA'ni SHARIAT¹⁸, TARIQAT¹⁹, MA'RIFAT²⁰, HAQIQAT²¹ yo'lidir. Bu bosqichlarni to'g'ri fahmlamay

¹⁷ Вахдоният, арабча, Аллохни англаб етиш.

¹⁸ ШАРИАТ а. شریعت 1. суннат, тариқат, дин. 2. расм, одат. 3. Ислом дини қонунияти.

¹⁹ ТАРИҚАТ а. تحریف 1. маслак; мазҳаб. 2. Тасаввуда дин арбоби йўли: накшбандия тариқати.

²⁰ МА'РИФАТ а. تفسیر 1. билим, илму заковат; истиора: маърифат нури, маърифатчироги, маърифат боғи, маърифат қуёши, 2. фалс. Ақл воситасида оламни таниш, маърифат назарияси. 3. маориф; таълим-тарбия.

turib, ISLOM evolyutsiyasi va uning ilmiy-madaniy qatlamini tushunish qiyin. Tassavvuf bosqichlarida “MUSULMON, OBID, ORIF va SHAYX” darajasida musulmonchilikning ilmu irfoniy amal va vazifalari belgilab olingan.

Tassavvuf ta’limoti VIII asrning o’rtalari IX asrning boshlarida Markaziy Osiyda Islom olamida dastavval *zohidlik* ko’rinishida, XIII asr davomida esa, avval kubraviya tariqatida *vatanparvarlik* va Xoja Bahouddin yashagan davrda *insonparvarlikning* oliy bosqichiga ko’tarildi. YAqin sharq mamlakatlariga yoyilgan *qodiriya* tariqatining tapgzamini ham Buxoroning ulammoyu fozillari tomonidan yaratildi. Tassavvuf aslida KOMIL INSON va INSON KAMOLOTI to’g’risidagi ta’limot bo’lib, keng ma’noda NAFS²² soflik va poklik uchun kurash maydoni hisoblanadi. Unda musulmon iymonni yutqazib qo’yib, Nafs quliga aylanishi qoralanadi.

“TASSAVVUF yo’lini tutgan kishi barcha xudbinlik va razolat, falokat va ma’naviy xalokatning sababchisi NAFSGA QARSHI ISYON ko’taradi. Inson yoxud musulmon o’zini tubanlik botqog’idan chiqarib, dunyo muhabbatidan voz kechadi, faqatgina Alloh muhabbatiga ko’ngil bog’laydi. Buni so’fiylikda INSONNING O’ZLIGINI ANGLASH YO’LI deb qaraladi va NAFS haqida shunday ta’riflar uchraydi:

²¹ ҲАҚИҚАТ а. تَقْيِيدٌ 1. ростлик, тўғрилик. 2. моҳият. 3. вокелик; моҳият ҳакиқати, тарихи

²² НАФС арабча، سُفَّ 1. китобий: жон, рух; инсон табиати. 2. мажозий: инсоннинг табиий хохиши билан лаззатбахш нарсалардан ёмон нафс//нафси аммора - инсоннинг лаззатпастлик табиати билан ҳаддан ортиқ хоҳишу тақозо этилган нораво ишлар, нафс талаби – еб-ичиши ва зино; нафсга ором бериш – нафсни қондириш, баднафслик; пора; кимнингдир нафс иззатига ёхуд кимнингдир шахсиятини таҳқир қилиб, бироннинг хақигига беҳурматлик қилиш; ♀ нафс бандаси, нафспаст, баднафс; 3. Тасаввуфий: шахс, ўзлик, шахсият; шахсиятга эҳтиром этилган нафс иззати, нафсни синдириш. Ўзни ҳакику камтар тутиш, хокисорлик, нафсни тийиш; очкўзлик, очофатлиқдан нафсни асраб авайлаш, борига қаноат қилиш, баднафслик қилмаслик; бирондан нафси учун ором олиш, фойдаланиш, бироннинг хақигига хиёнат қилиш; инсон табиати тақозоси билан ҳирсни синдириш

Xoja Bahouddin: “O’z nafsining yomonligini tanish o’zligini tanishdir»; SHayx Najmuddin Kubro: «Tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir»; SHayx Safiy Alimshoh: «Tassavvuf nafs manzillarini bosib o’tishdir»; SHayx Raqim: «Tassavvuf – Xudo yo’lida nafsdan kechmoqdir»; So’fiy shoir Bobo Tohir: «Tassavvuf – nafsoniy-hayvoni yahotda o’lmoq va insoniy hayotda yashamoq», - deb javob qaytarganlar. Xullas, tassavvuf da nafs buzuqligi, ochko’zligi, xudbinligi har tomonlama qoralangan.

Хожа Баҳоуддин: “Ўз нафсининг ёмонлигини таниш ўзлигини танишдир”

Нажмиддин
Кубро: «Нафс
лаззатларидан
воз кечишидир»

Шайх Сафий
Алимшоҳ:
«Нафс
манзилларини
босиб ўтишдир»

Шайх Раким:
«Тасаввуф –
Худо йўлида
нафсдан
кечмоқдир»;

Сўфий Бобо
Тохир:
«Иафсоний-
хайвоний хаётда
ўлмоқ ва
инсоний хаётда
яшамоқ»

Demak, tassavvuf - nafsga qarshi isyon, insonning o’zligini anglash yo’lidir.

So’fiylik ta’limotida mislsiz ilmiy qarashlar mavjud. Islom olamida Naqshbandiya, YAssaviya, Kubraviya (O’rta Osiyo), Qodiriya (Eron va Afg’oniston), Rifoysi (Eron), Tayfuriya (arab mamlakatlari), Mavlaviya (Turkiya), CHishtiya (Hindiston va Pokiston), Bektoshiya (Turkiya), Savafiya (Eron) va boshqa tariqatlar keng tarqalgan. Biroq SHarq tamaddunida xalqchil ahamiyat kasb etgan tariqqat, bu YAssaviya tariqatidir.

YAssaviya tariqati asoschisi ulug’ mutasavvif Xoja Axmad YAssaviy bo’lib, Buxoroda Abduxolik G’ijduvoniy bilan birgalikda

mashhur shayx, tassavvuf ning yirik vakili YUsuf Hamadoniydan saboq olgan. Bu tariqatda zikr jahriy (ya’ni baland ovoz chiqarib til va dil bilan barobar Alloh so’zini bayon qilish tushunchasi) bo’ladi. Naqshbandlik tariqati ham silsila jihatidan YAssaviylik tariqatiga aloqadordir.

Kubroviya tariqati asoschisi Najmuddin Kubro («Najmuddin» – «Din yulduzi», laqab. «Kubro» – «Ulug'», «Valiytarosh» – «Valiylar tarbiyalovchi») yoshligidanoq hadis va kalomni o’rganib, Misr, SHom, Bag’dod, Nishopur va Tus kabi shaharlarda o’sha davrning buyuk shayx-olimlari Bobo Faraj, Ismoil Kasriy, Ammor YOsir, Ro’zbehon Misriylardan zohiriylar va botiniy ilmlarni o’rganadi. O’z yurtiga qaytgach, xonaqoh ochib, valiylik – ustozlik qiladi. Xorazmga yaqinlashib kelayotgan bosqinchiligi CHingizzon lashkarlariga qarshi ona yurtini himoya kilishda 76 yoshida shahid bo’ladi. Bu haqda Mirzo Ulug’bek «To’rt ulus tarixi» asarida shunday yozadi: «Murshidi a’zam SHayx Najmuddin Kubro xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda qotil yaloviga yopishdi. Dini haq iqlimining shohi. Ul pir sarpanjasidan o’n zabardast yigit yalovni chiqarib ola olmadilar. ... Biz shunday ulug’lardanmizki, gavhar tutamiz; oriq echki tutgan pastkash emasmiz. Iymon kadahidan bir qo’limiz bilan may ichsak, ikkinchi qo’limiz bilan kofir yalovidan tutamiz». Najmuddin Kubroning bu jasorati avlodlar uchun, vatanparvarlikning yorqin timsolidir.

So’fiylar ruh tirikligi, «vahdat» (arabcha, Xudoning yagonaligiga e’tiqod) - Allohga e’tiqod qanday bo’lishi kerakligi, Alloh bilan insonning qalban birligi munosabati, vujudni poklab Allohga singish va boqiyga

rixlat qilish shartlarini ko'rsatib o'tganlar. Ular ruhiy-ma'naviy kamolotga erishishning manzillaridan o'tib Alloh jamoliga erishishni orzu qilganlar.

Tassavvuf ta'limotida **Shariat** bosqichida **mo'min-musulmon** farz amallarini bekamu-ko'st amalgalashadi. **Tariqat** bosqichida murid (**obid** – ibodat qiluvchi) lar aqlan o'z ixtiyorini butunlay pirlari – murshidlar (shayx, ustozlar) ixtiyoriga topshiradi. **Ma'rifikat** bosqichida irfon sohibi (so'fiylar nuqtai nazarida Allohnинг tuhfasi *irfon* ilmdan ustun turadi), ya'ni **oriflar** borliqning birligi Xudoga singish va birikishni, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, qalb bilan anglab etishadi. **Haqiqat** bosqichida **zohid** «shaxs sifatida tugab», Xudoga singib abadiylikka erishadi.

Professor Najmiddin Komilov tariqatda maqomot va hol tushunchalarini SHayx Abunasr Sarroj fikri²³ misolida yaxshi izohlagan, maqomot bosqichlari qisqacha shunday:

1. **Tavba** – qaytish demak, ya'ni kamolotga, oliv axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga etishish yo'liga g'ov bo'ladijan jamiki narsalardan qaytishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Ollohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi.

2. **Vara'** - so'zining ma'nosi parhez, taqvo bo'lib, bulg'anishlardan, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan, ko'ngil man' etgan jamiki narsalardan parhez qilish, tama' qilishdan saqlanish. SHayx SHibliy vara'ning uch ko'rinishi: “*til vara'i*, ya'ni tilni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslik; *ko'z vara'i* – shubhali narsalardan saqlanish, g'aliz shakllarga boqmaslik; *qalb vara'i*, ya'ni past

²³ Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. –Т.: «Ёзувчи», 1997. 2-китоб. –Т.: «Ўзбекистон», 2000.

himmatni tark etish va noxush qiliqlarni qilmaslik”ni ko’rsatgan. Abubakr SHibliy (859-946) o’z davrining ko’zga ko’ringan ulamolaridan, Mansur Xallojning (858-922) shogirdi, so’ng Junayd Bag’dodiy qo’lida ta’lim olgan.²⁴ SHayx SHibliy ziyoratgohi hozir Qarshi shahrining sharqiy-janubiy qismida SHilvi qishlog’ida joylashgan. Farididdin Attor Nishopuriyning “Ilohiynoma” kitobida, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asarida, Abdurahmon Jomiy “Bahoriston”ida ham “SHibliy — Abubakr Muhammad ibn Xalaf arab tilida ijod qilgan tasavvuf shoiri, o’zi O’rta Osiyo (Buxoro)dan chiqqan. 945 yilda Bag’dodda vafot etgan” degan ma’lumotlar bor.

3. **Zuhd** – vara’ning davomi, bu ham parhez qilish. Ammo bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratish tushuniladi. Zuhd so’fiy uchun dunyo va oxirat tarki – dunyo moliga ega bo’laman deb intilmaslik.

4. **Faqr** ma’nosи – qashshoqlik, benavolik, kamsuqumu kamtarinlik, ulug’vor ilohiy mohiyat kasb etish. Bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish. Alloh nazdida o’zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash.

5. **Sabr** – toqat, chidam. So’fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sobir (sabr etuvchi) o’zini balo girdobiga solib, balolardan qo’rqmaydigan odam. Nafs sabr orqali jilovlanadi, toatdan halovat topish ham sabr bilan amalga oshadi.

²⁴ Шаропов Ш. Шайх Шиблий ким бўлган? “Хуррият” газетаси, 2009. 01.11.2015, ziyouz.uz.

6. **Xavf** – qalbning ishonchdan, iymon amnidan chiqishi, ikkilanish, tahlika. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko'ngilga xavf-qo'rquv soladi. Solik azobdan emas, balki makrdan, nafs makridan qo'rquadi.

7. **Rajo** – umidvorlik. Qalbning kelajakda Mahbub vasliga etishidan umidvorligi, xavfdan qutulish umidi, dil sog'inchi va intiqliklari.

8. **Tavakkul** – barcha yaxshi-yomon hodisalarini Xudo karomatidan deb bilish, kullan Parvardigorga suyanish, undan qo'rqish, ilohiy fayzga umidli kishining ma'rifat kamolidan keladigan oliymaqom iymonidir.

9. **Rizo** – qazo amriga taslim bo'lgan qalbning sururi, qalbdan qabohat-kirlarning ketishi, qazovu qadar hukmiga bo'y sunish, nafs roziligidan chiqib, Haq roziligiga kirish. Rizo – bandaning o'z rizosidan chiqib, Mahbub rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarracha e'tiroz qilmaslik.

SHulardan so'ng *suluk* tariqat bosqichlarini bosib o'tib, *Allohni zikr* etayotganda xuddi qalandarlar kabi holatga tushadi. Zikr – so'zlash, bayon qilish, xotirlash, yod aylash, xotirdagini unutmaslik ma'nolarini anglatadigan arabcha bir kalima.

**Шайх Абунаср
Сарроғнинг
9 босқичли
мақомот ва ҳол
тушунчаси**

ТАВБА – қайтиш, аввалги ҳаёт тарзидан воз кеч
•ВАРАЬ - парҳез, тақво
•ЗУҲД - дунё ва охират тарки, дунё молдан воз кечмаш
•ФАҚР - маъноси қашшоқлик, бенаволик, камсукуму камтаринлик.

САБР – тоқат, чидам
•ХАВФ – қалбнинг ишончдан, иймон амнидан чиқиши, иккиланиш, таҳлика
•РАЖО – умидворлик
•ТАВАККУЛ илоҳий файзга эътимодли кишининг маърифати
•РИЗО - нафс розилигидан чиқиб, Ҳақ розилигига кириш.

Tasavvufda bu kalima g'aflat va isyon – esdan chiqarishning ziddi o'rnida tatbiq etilgan. Zikr tasavvuf ahlining ko'z oldida – barcha qoida,

usul va odoblarning boshidir. Zikr ikkiga ajratilgan: biri – «zikri omma», ikkinchisi – «zikri xos». Zikri omma savobni qo'lga kiritmoq niyati ila amalga oshirilib, unda zohirning tabiatida yomon xislatlar: ***kibr, g'urur, rijo, hirs, tama'***, ***g'azab, makr*** kabilar batamom barham topgan bo'ladi. Xoslarning zikrida nafs batamom mag'lub etiladi va qalb ma'rifat, muhabbat nurlari ila yorishib, tilda ham, dilda ham Alloh ishqidan boshqa hech vaqo qolmaydi. Bunday ulug' hol sohibi bo'lmoq uchun qat'iy intizom, sabr va ixlos bilan zikrga berilish talab etilgan.

Holning bosqichlari :

1. ***Qurb*** (yaqinlik) – solikning o'zini Alloh taologa yaqinlashganini his etish holati.
2. ***Muhabbat*** - qalbda kuchli tug'yonning ko'tarilishi, betoqat va bezovta bo'lib, barcha go'zalliklar manbai, qudratu nusrat, ne'matu rohat egasi Olloh tomon talpinishi.
3. ***Shavq*** – muhabbatning zo'rayishi, Alloh mehriga sazovor bo'lishga ishonish.
4. ***Uns*** – (do'stlashuv) esa ko'nikish, Xudo mehriga, shafqatiga odatlanish.
5. ***Mujohida*** – nafjni mahv etishga qat'iy intilish, tanga mashaqqatni ravo ko'rib, g'alaba qilish.
6. ***Mushohida*** (ko'rish) esa o'z navbatida g'ayb pardalarining ochilishi.
7. ***Mukoshifa*** – ilohiy sirlarning kashf etilishiga yo'l ochish martabasini hosil qilish. Albatta, bu martaba-manzillarning ketma-ketlik tartibi shart vazifa hisoblanadi. CHunki bu holatlar solikda navbatma-

navbat yuz berishi ham yoki birdaniga bir necha xislat sohibiga aylanishi ham mumkin.

Mavlono Alisher Navoiy «Lison ut-tayr»da «Simurg'» xikoyasi zaminida tasavvufning etti maqom-bosqichiga alohida-alohida badiiy sharh berib, qushlarning Hudhud yo'lboschchiligidagi Simurg'ni izlab etti vodiydan (*Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano*) o'tishlari va Simurg'ni topolmay, uni izlashga chiqqan “*si+murg*” (o'ttiz qush)ning o'zi ekanligini bilishlari ta'riflanganini eslang. Mazmunan bu bosqichlar qisqacha shunday:

1-bosqich, ***TALAB*** – so'fiyning o'zini ruhan tayyorlashi, talabgorlik.

2-bosqich, ***ISHQ*** – oshiq (musulmon)ning Ma'shuqa (Alloh)ga etishishi barcha narsadan avloroq, beintiho jiddu jahd, azmu irodani bir maqsadga yo'llash, tinimsiz talpinish.

3-bosqich, ***MA'RIFAT*** - poklik olami eshiklarining ochilishiga sazovor bo'lish, pokdomonlik.

4-bosqich, ***ISTIG'NO*** – o'zining ojizligi, Allohning buyukligini, o'zining muhtojligi, noqisligi va Allohning ehtiyojsizligi, komilligini anglash.

5-bosqich, ***TAVHID*** - har damda, yotsa ham, tursa ham, barcha-barchasida Allohning yakkaligini his qilib turish, jisman odamlardan uzilish, yakkalanib, xaloiqdan judo bo'lish, Haqqa yuz tutish.

6-bosqich, ***HAYRAT*** – gangib qolish, o'zini yo'qotish.

7-bochqich, ***FAQRU FANO*** – Navoiy ta'birida «Faqr Hayrat vodiyidan o'tsang, Faqr Fano vodiyisiga duch kelasan. Bu vodiyda xomush, gung, kar va behush bo'lishdan o'zga narsa yo'qdir. Chunki bu

chuqur dengiz to'fon girdobida bo'lib, unda yuz tuman olam g'arq bo'ladi... Pirovardida bu zor qushlar guruhidan ranj topgan ushbu majruh to'dadan ozchilik qism tanlari nihoyatda qiyngalgan va jonlari o'rtangan holda maqsadga etib kelishdi. CHunki yo'l cheksiz va uzoq bo'lib, unda ofat ko'p, dard, ranj va shiddat esa benihoya edi»²⁵.

Ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy qarashlarida ham O'ZLIKNI ANGLASH g'oyasi badiiy tarzda bo'rtib turibdi. O'zlikni anglash orqali Allohga talpinish, Allohni anglash, Allohga singish – FANOdan BAQOGa rixlat qilish g'oyasi tarannum etilmoqda.

Mavlono Alisher Navoiy ham Naqshbandiya tariqatiga suyangan ijodkor bo'lganligini bilib olamiz.



Naqshbandiya tariqati (bu Xojagoni Naqshbandiya tariqati deb ham yuritiladi) butun dunyoga ma'lumu mashhur buyuk allomalar, aziz-

²⁵ Алишер Навоий. Лисонут-тайр. –Тошкент: Фан, 1965.

avliyolar Abdulkoliq G’ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siyoshi bilan tanilgan. Musulmon ahli u kishini ulug’ avliyo sifatida ko’rib, “Bahouddin balogardon” deb ta’rif bergan. Tariqatlar ichida Naqshbandiya tariqati o’ta progressiv, insonparvar va xalqchil hisoblanadi. Uning *progressivligi* – Alloh yo’lida toat-ibodatni ko’r-ko’rona amalga oshirmaslik (“*dil ba yor*”), *insonparvarligi* – bu dunyoda o’zidan bir bog’ (yoki bino), solih farzand va shogird qoldirish (“*dast ba kor*”), *xalqparvarligi* – Allohga yaqin bo’lish uchun insonlardan o’zini olib qochish nojoiz, Alloh oldida hamma barobar. Allohn ni qalbga naqshlab, faqiru haqirlarga muruvvatli bo’lish Allohga ko’rsatilayotgan shafoat bilan barobar (“*xilvat dar anjuman*”)dir.

Naqshbandiya tariqati sayri suluki (maqomi)ga kirgan har bir kishi o’n bir asosga ega bo’lgan dasturni bilishi juda ham zarur sanaladi:

1. ***Hush dar dam***. «Hush» so’zi «aql-hush, «dam» so’zi «nafas», «hushyorlik» ma’nosini bildiradi. Har nafasda hushyor bo’lib, Allohn ni esdan chiqarmaslik. Allohn yod etib turish.
2. ***Nazar bar qadam***. Qadamga nazar solish. So’fiylikka kirgan suluk doimo oyog’ining uchiga nazar solib yurishi, turli harom narsalarga nazari tushishining oldini olishi lozim.
3. ***Safar dar vatan***. Bunda «Vatanga safar qilish - Haqqa safar qilish» ma’nosи tushuniladi.
4. ***Xilvat dar anjuman*** - Anjumanda xilvat qilmoq. So’fiy xalq ichida bo’lsa-da, o’zi Haq bilan xoli bo’lish malakasiga ham ega.
5. ***Yod kard*** – YOd et. Nafasni tutib turib, til va dil bilan birdaniga tavhid zikrini qilish nazarga tutilgan.

6. ***Bozgasht*** – So'ngra o't. Maqsad va matlab Allohning roziligini olish. Solik zikr qilib bo'lgach: «Ilohim, Sen maqsudimsan va rozililing matlubimdir», deydi va buning ma'nosini anglashi nazarda tutiladi.

7. ***Nigoh dosht*** – Nigoh sol. Qalbni xavotirdan saqlash va bu orqali qalbga Allohning muhabbatidan boshqa narsa kirmasligi ta'minlash.

8. ***YOd dosht*** – YOdg'a ol. Har lahzada Alloh taoloni yodda tutish.

9. ***Vuqufi zamoniy*** – Zamon va vaqtdan voqif bo'lmoq. Solik o'zi yashayotgan zamонни bilmog'i va undan unumli foydalanmog'i ko'zda tutilgan.

10. ***Vuqufi adadiy*** – Adaddan voqif bo'lmoq. Vaqt mobaynida Allohn'i zikr qilishda so'fiyning lafzlarni cheksiz talaffuz qilishi.

11. ***Vuqufi qalbiy*** – Qalbdan voqif bo'lmoq. Qalbni Allohning zikri, fikri va amri ila mashg'ul qilmoq haqida so'z boradi»²⁶.

Bu maqomot uch buyuk allomaning ijodiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Yusuf Hamadoniy tayin etgan shiorlar: *Hush dar dam. Nazar bar qadam. Safar dar vatan. Xilvat dar anjuman.* Abdulxoliq G'ijduvoniy tayin etgan shiorlar: *YOtkard. Bozgasht. Nigohdosht. YOddosht* va Bahouddin Naqshband tayin etgan shiorlar: *Vuqufi zamoniy. Vuqufi adadiy. Vuqufi qalbiy.*

Bu shiorlar hozirgi kunda ham har bir mo'min-musulmonga buyurilgan tafakkur maqomidir. «Bir soatlik tafakkur bir kunlik ibodatdan afzaldir» hadisining ma'nosи ham shu. Zero, inson o'ziga berilgan aql farosat bilan borliqqa, zamonga va eng avvalo o'ziga teran nigoh solib, yaratilmish narsalarning mohiyati va YAratuvchining qudrati,adolati,

²⁶ Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. –Т.: «Ёзувчи», 1997. 2-китоб. –Т.: «Ўзбекистон», 2000.

shafqati, muhabbati, in'omi haqida tafakkur qilsa, hayot, borliq va jamiyat faqat Alloh bilangina mazmun kasb etishini to'g'ri anglaydi. SHularga ishonchning o'zi iymon, iymonning madoridir. Binobarin, tafakkur iymonga etaklovchi, iymonga quvvat bo'luvchi omildir. SHuning uchun ham xolis tafakkur xolis ibodatning oliy darajasidir.

Naqshbandiya ta'limoti:

1. Hush dar dam - Har nafasda Allohoni yod etish
2. Nazar bar qadam - Har qadamga nazar solish
3. Safar dar vatan - Vatanga safar qilish. - Haqqa safar qilish.
4. Xilvat dar anjuman - Anjumanda xilvat qilmoq: xalq ichida, Haq bilan birga.
5. YOd kard. - YOd etish. bir nafas, til va dil bilan Xudo zikrida bo'lism.
6. Bozgasht - So'ngra o't. Maqsad va matlab - Alloh roziligin olish.
7. Nigoh dosht - Nigoh sol. Qalbni xavotirdan saqlash.
8. YOd dosht. YOdga ol. Har lahzada Alloh taoloni yodda tutish.
9. Vuqufi zamoniy - Zamondan voqif bo'lmoq. Zamonni bilmoq va unumli foydalanmoq
10. Vuqufi adadiy - Adaddan voqif bo'lmoq. Zikr qilishda talaffuz qilinadigan lafz-oyatlar
11. Vuqufi qalbiy - Qalb voqifligi. Qalb Allohnинг zikri, fikri va amri bilan mashg'ul.

Tassavvuf ahli riyozat chekish orqali qalbni poklash yo'llarini izlagan. Haq yo'lida ongli ravishda inson o'z oldiga ulug' bir maqsadni belgilab, unga etishish uchun ixtiyoriy ravishda barcha qiyinchiliklarni zimmasiga oladi, to'siqlarni engib, maqsad sari intiladi – riyozat qiladi.

Riyozat chekish orqali ko'ngil egasi KOMIL INSON darajasiga erishadi. Bunday inson atrofga ziyo taratadi, o'zgalar ruhini ham ma'rifatli etib, ko'ngillarni nurlantiradi. Bil'aks, jamiyatni parokanda qilmaydi, insoniyat tinchligini buzmaydi, hech kimni (g'ayri din va kofirni ham) tahqirlamaydi, atrofidagilarni iymonsizlikda ayblab kamsitmaydi, besamar fig'on ko'tarmaydi. Aniqrog'i, revolyutsion-to'ntarish tarafdori bo'lmaydi.

Jamiyat va hayot shartlari har doim ham mukammal bo'lavermaydi. Ijtimoiy hodisaning ham salbiy, ham ijobiy tomonlari har bir zamonda kuzatiladi. Asrlar mobaynida jamiyat islom madaniyatidan oziqlangan, inson ruhi ana shu madaniyat asosida tarbiya olgan. Qur'oni Karim bilan o'z qalbiga taskin berib, tassavvuf bilan kamolot sari intilib yashagan.

Birgina "so'fiyona mistika" taqvi la'nat tamg'asi bilan "insonning budunyodan voz kechishi, tarkidunyochilik, hayotdan lazzatlanib yashashdan mahrum etishga da'vat etuvchi "regressiv ta'limot" deb xulosa chiqarish yaramaydi. Negaki, so'fizm insonning o'zligini anglashi, iymon va e'tiqodini shakllantirishda uning oldiga "Kim?" "Nima?" "Nima uchun?" "Kim uchun?" "Nima qilib?" "Qanday qilib?" kabi savollarni ko'ndalang qo'yadigan o'ziga xos va o'z davrida ilg'or progressiv g'oyaviy qarash hisoblanadi. Tom ma'noda ma'rifiy harakat va yo'nalish sanaladi. Bu harakat musulmon olamida siyosiy to'qnashuvlarni tarozuga solishda, davlat va jamiyat boshqaruvida shaxsning o'rniga baho berashda ma'naviy qurol vazifasini bajaradi. O'z davrida bu quroldan jamiyatning ziddiyatli munosabatiga mafkuraviy ta'sir qiladigan faol ijtimoiy harakat sifatida foydalanilgan. Bu tasavvufiy jarayonlarni falsafa nuqtai nazaridan

“ziddiyatlar va inkorni inkor qilish qonuni” deb baholash mumkin. Bunda insonning o’zligini fahmlashiga turtki beruvchi va falsafiy dialektik mushohadani talab etuvchi geotsentrik²⁷ muammolarni bartaraf etishga qodir kuch ham mavjud.

Professor A.Hayitmetovning ta’kidlashicha, “tasavvuf vakillarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonning jonni tanadan qutqarishi g’oyasi nafsni tiyishni yoqlashga asos bo’lgan”. SHayx SHibliy: “Faqat xudo kishiga do’st; u dunyo ham, bu dunyo ham kishiga dushman” deydi. So’fi Junayd o’zini Haqqa etishgan sanaydi. SHibliy undan bunga qanday qilib erishding, deb so’raganida u “tarkidunyochilik bilan”, degan javob qaytaradi. Uningcha, inson xudoning buyurganini qilaman desa, o’zligidan, o’z insoniy intilish va ehtiroslaridan voz kechishi lozim. Ba’zi bir “mistiklar fikricha, u dunyo jannati va do’zaxi uchun namoz va ro’za haqidagi gaplarning bari bekorchidir. Ular faqat xudoning o’zinigina tan olar edilar.”²⁸ Ba’zi so’fiylar o’z g’oyalarini obrazli ifodalashga intilib, xudoni ideal bir mahbub yoki mahbuba (yor): o’ta xudbin, o’zidan boshqani deyishga yo’l qo’ymaydigan, kindor deb bilishadi. Xudo o’ziga intilganlarga: “Yo meni deysan, yo o’zingni”, deydi. SHu tarzda Xudo ishqisi ilohiy ne’mat deb baholanadi. Chuqurroq e’tibor berilsa, tarkidunyochilik bu shunchaki o’lim yo’liga tushish emas, balki poklik, halollik, komillik, nafsni tiyish, iymonli bo’lish sari tanlangan ishqini botiniy yo’lidir.

²⁷ Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. “Шарқ”, Т.: 2004, 102 б. (геоцентризм, юононча геер ва лотинча centrum - марказ, ўқ деган маънони англатади. Фалсафий дунёкарош тури, унинг асосида бутун борликни тушунтириб бўлмайдиган, гайритабиий кучни Худонинг мутлақлиги оркали тушунтириш)

²⁸ Ҳайитметов А. Шарқ адабиётиниг ижодий методи. Тошкент, “Фан” нашр. 1970.

Tasavvuf ta'limoti to'g'risida ziddiyatli va ayni paytda bir-birini to'ldiradigan fikrlar juda ko'p. Jumladan, uni so'fiylik ta'limoti bilan bir narsa deb tushunadiganlar ham, uni bir-biridan ajratib farqlaydiganlar ham uchraydi. Ba'zi tasavvufshunoslar "Tasavvuf - sufiylik, til, hatto din nuqtai nazaridan oqimlarga, tariqatlarga ajralmagan, chunki sufiylik doimo umuminsoniylikni birinchi o'ringa qo'ygan. Sufiylik - umuminsoniy muammolar - inson va ruh muammolarini o'rganuvchi o'z izlanishlari natijalarini targ'ib qiluvchi yaxlit ta'limot" ²⁹ deb ta'rif berishadi. Boshqalari esa, bu ta'limotda SHarq xalqlarining aqliy tafakkuri va ma'naviy hayoti o'z ifodasini topganligini, shu ta'limot asosida ma'naviy yuksaklikka - Komil Inson darajasiga ko'tarilish g'oyasi etakchi o'rinn tutishini ta'kidlashadi.

Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham SHayx Abu YUsuf Hamadoniynnig tabarruk nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning to'liq ismi Abu YA'qub ibn Ayub bin al-Husayn bin Buxoriy al-Hamadoniy bo'lib, 440 (1048) yilda Hamadon (Eron) yaqinidagi Buzanjird qishlog'ida tavallud topgan. U ustozи Abu Ishoh al-SHeroziy rahbarligida yoshligidanoq botiniy va zohiriylar tarbiyaga, tasavvuf va ma'naviyat tamoyillarini o'rganishga alohida ahamiyat berdi. Hamadoniy faqirona va g'aribona hayot kechirib, umr bo'yi dehqonchilik, kosibchilik bilan tirikchilik o'tkazgan bo'lsa ham, Turkiston va Xuroson xalqlarining ma'naviy-madaniy hayotida katta rol o'ynagan. U hayotda xushfe'l hurmat va e'tiborli inson bo'lgan.

²⁹ Вохидов Р. Жожа Исмат-зуллисонайн шоир/ Йиллардан колган маънавий ёдгорлик: Илмий мақола, тақриз ва хотиралар тўплами. –Тошкент. Зарқалам -2006. 21 б. Яна қарант: Крымский А. История Персии, её литературы и дервишеской теософии. М.: Наука, 1971.

Darhaqiqat, “Tasavvuf - komillik yo’li, milliy, ma’naviy meros, umuminsoniy qadriyatdir. Tasavvuf insonning mohiyati, jamiyatda tutgan o’rni, halollik, mehnat, vijdon, iymon kabi xislatlarni falsafiy tahlil etishning o’ziga xos yo’lidir.”³⁰ Unda poklik va insoniylik, odamiylik va samimiyat, insof va diyonat, himmat va saxovat, to’g’rilik va halollik, shariat va muhabbat, ezgulik va hidoyat, shafoat va sharofat singari axloqiy tamoyillar mujassamdir. Chunonchi, Najmiddin Kubro murid tarbiyalashning o’n talab asosida tariqat manzillarini bosib o’tish yo’llarini ko’rsatadi:

- **Tavba** – solik tutgan barcha amallarning boshi, maqomning birinchi qoidasi asl tavbadir. Tavba gunohlardan forig’ bo’lishdir.
- **Zuhd** – taqvo, parhezkorlik bo’lib, tavba qilgan kishining haromdan hazar qilishi, halollikka yuz tutishi, Allohdan qo’rqib, Allah man’ etganishlarni qilmaslikdir.
- **Tavakkul** – o’z amallari, fikri va ishlarida yolg’iz Allahga suyanishdir. Risqni Allah beradi, inson taqdirini Allah belgilaydi va inson amallari ham Allah irodasi doirasida bo’lishi kerak.
- **Qanoat** – solikning ko’ngliga ravshanlik va yorug’lik keltiruvchi ne’matdir. Qanoat nafs, hayvoniy shahvat va lazzatlardan voz kechish, lekin odamning mavjudligi usiz bo’lmaydigan darajada qanoat qilish.
- **Uzlat** – solikning ruhi, agar u poklanishga moyil bo’lsa, tabiiy ravishda yakkalanish va go’shanishinlikni talab qiladigan holatdir, ya’ni solik ruhi tajrid (ajralish) va tafrid (yolg’izlanish) bosqichlarini bosib o’tmasa to’la poklanmaydi.

³⁰ Фалсафа асослари. Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005, 128-129 б

- **Tavajjuh** – solikning o’zi bilan kurashi, hamma vaqt Allohgaga yuzlanib, undan madad so’rab, unga qalban intilishi, Allohgaga butun borliq vujudi bilan tavajjuh (taslim) bo’lmoqlik.
- **Sabr** – solikning e’tiqodi, niyatini sinash. Haq yo’li og’ir va mushkul yo’l, uning azobu iztiroblariga chidagan kishilargina maqsadga erishadi.
- **Muroqaba** – kuzatish, tafakkur-shuurga berilish bo’lib, tavbatazaru qilib, sabru sadoqat bilan o’zining ma’rifatini oshirib borgan solik bora-bora osoyishta holga keladi.
- **Zikr** – eslash, yod etish bo’lib, solik har erda, har doim Allohnинг ismlarini tilidan qo’ymasligi, kalima, duoni muntazam takrorlab turishi bilan Allohnинг ismi sifatlarini qalbga joylaydi.
- **Rizo** – Alloh qudratini ilmini chuqur his qilgan holda solik o’zini butkul uning irodasiga topshirishi, Alloh olami bilan huzurlanish, Haqqa yaqinlashish. Ilohiy olam va inson olami o’rtasidagi yaqin munosabat.



“SHayx Najmiddin Kubro murid tarbiyalashning o’ziga xos ana shunday usullarini ishlab chiqqan. Unda o’n talab asosida tariqat manzillarini bosib o’tish, poklanish va ma’rifat yo’llari ko’rsatilgan. SHayx “Risola at-turuq” (Tariqatlar risolasi”) va “Al-usul al-ashara” (“Tasavvufning o’n asosi”) asarlarida sufiylar tarbiyasida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizoning ahamiyatini e’tirof etgan.”³¹

“Tariqat” arabcha so’z bo’lib, “yo’l, usul, maslak, so’fiylik yo’li” ma’nolarini anglatadi. “Tasavvuf - Alloh va payg’ambarni yaxshi ko’rish, bor vujudini ularga bag’ishlashdir” degan tushuncha ham bor.

Ba’zi olimlar tasavvufning mazmuni keng va tarixi qadimiyligini isbotlab ko’rsatishadi. CHunonchi, SHayx Voiz Koshifiyning harfma-harf sharhlashicha, “tasavvuf” atamasida “T - tajriba, ya’ni ortiqcha narsalardan holi qolish, behuda ishlardan cheklanish, S - sidqi safo, V - vafo, F - fano ma’nolarini anglatadi. Demak uningcha, tasavvuf ahli pok va go’zal bo’lishi, haq va haqiqatni bilishga intilishi zarurdir. Islom ta’limoti bo’yicha tasavvuf ahli *shariat*, *tariqat*, *ma’rifat*, *haqiqat* odobini o’tashi joiz. Bu bosqichlar insonni kamolotga eltuvchi maqomlardir. Uningcha, **shariat**, **tariqat**, **ma’rifat** va **haqiqat** - insonni ma’naviy kamolot darajasiga etkazuvchi zinapoya hisoblangan. “SHariat” hukmlari Alloh taolo tomonidan farz, payg’ambardan sunnat qilib berilgan. Bu hukmlarni bajarish musulmon uchun shart, chunki shariat hukmlariga to’la-to’kis amal qilgan musulmondir. Tariqatga o’tish uchun shariat birinchi zinadir. SHariat - er, tariqat mazkur erda ungan daraxt, haqiqat esa daraxtning

³¹ Исхокова З. Нажмиддин Кубро. Тошкент, Abu matbuot-konsalt. 2011, 14 6.

mevasidir. SHariat zaminida unmagan daraxtning mevasi zahardir. Jadvalga e'tibor qaratamiz:



Koshifiy shariat, tariqat, haqiqat bir-biri bilan bog'langan deb aytadi. Aslini olganda tariqatdan murod tarbiyadir. Demak, tasavvuf ahli uchun Qur'oni Karim va Hadisi sharifdagi axloqiy-ilohiy ko'rsatmalarni puxta o'zlashtirish, payg'ambar shartiga amal etish nazarda tutiladi. SHariat talablarini bajarmasdan tariqatga o'tishga ruxsat berilmagan. Bundan ko'rinish turibdiki, islom ta'lumoti bo'yicha har bir kishi shariat, tariqat, ma'rifat manzilida xudo mohiyatini tushunib kamol topadi va eng avval, *obid*, keyin *orif* va oxir nasib etsa, "an-al-Haq"ni tanib, karomatli *shayx* darajasiga etishadi. Koshifiy "tariqat ma'nosi, rost to'g'ri yo'ldir" deb ta'kidlagan edi. "Tariqat – komil axloq yo'li bo'lib, tariqat ahli hamisha Haq yodida bo'lib, kattayu kichikdan o'zlarini past tutib, xalq xizmatiga kamarbasta bo'lganlar va ularning hatti-harakatlarida nuqson ko'rsalar, yumshoqlik va muloyimlik bilan ayblarini aytganlar, hech bir narsalarini boshqalardan qizg'anmaganlar, aksincha, ularning qayg'u va

xursandchiliklariga sherik bo'lganlar... . Tariqat asosini inson ma'naviy kamoloti (nafs tarbiyasi, qalb tarbiyasi, ruhiyat tarbiyasi, botiniy tarbiya) ga oid bilimlar tashkil etgan.”³²

Xulosa

O'zbekistonda faylasuf olimlar aksmariyat holda “Tasavvuf mohiyatining tarixiy falsafiy tahlili, uning goyaviy ildizlarini, uning ontologik zaminini, teologiya va dunyoqarashdagi mohiyatini ochish, shuningdek, bu noyob ruhiy-diniy fenomenni ilmiy tadqiq etish va baholashga e'tibor qaratganlar. SHu nuqtai nazardan:

- tasavvufning ijtimoiy-madaniy determinantlari tahlili;
- tasavvufshhg ontologik omillari va uning mifologik manbalari tahlili;
- tasavvuf teologiyasining falsafa bilan o'zaro bog'liqligi tahlili;
- tasavvufning ijgimoiy-falsafiy mohiyatini ochish;
- bu ta'limotning ilk o'rta asrlar feodal jamiyati sharoitidagi taraqqiyotining xususiyatlarini tadqiq qilish;
- tasavvuf genezisini va uning taraqqiyotini tadqiq qilish;
- tasavvuf ta'limotida dunyoqarash kontseptsiyasining tahlili;
- teologik shakl va dunyoqarash shakllarining o'zaro bog'liqligini ochish, tabiatga, insonga va jamiyatga ma'naviy, diniy-falsafiy munosabatni tahlil qilish;
- tasavvufdagi ilohiyotshunoslik nazariyasining o'ziga xosligini tadqiq etish;

³² Исхокова З. Нажмиддин Ку́бро. Тошкент, Abu matbuot-konsalt. 2011, 13 б.

- O'rta Osiyodagi so'fiyona tariqatlar shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy shart-sharoitlarini ko'rsatish;
- ortodoksal islom va so'fizm taraqqiyoti jarayonidagi o'zaro munosabatni ko'rsatish;
- tasavvufning tarixiy-falsafiy mohiyatini yanada chuqurroq o'rganish uchun ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqish»ga ahamiyat qaratganlar.³³

“Ma'rifat” tasavvufning etakchi maqomidir. Bu maqom doimo allomalar faoliyatida va ijodida asosiy o'rin egallagan. Chunonchi, YUsuf Hamadoniy, Najmuddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshbandiy, Xo'ja Ahmad YAssaviy, Hakim ota Sulaymon Boqirg'oniy singari tabarruk zotlar Turon zaminining shon-shuhratini butun musulmon olamiga yoygan ma'naviy chinorlar hisoblanadi. Mardligi, doimo faqirlarga yordam berishi bilan nom taratgan, tasavvufning eng yorqin va ulug' namoyandasasi esa SHayx Najmuddin Kubro sanalgan. U zot tasavvuf olamida o'z xalqiga muhabbat, milliy g'urur, milliy iftixon his-tuyg'ularini shakllantirishga namuna bo'lgan piru vali hisoblanadi.

“Haqiqat” tasavvufning eng yuqori oliy maqomidir. Bu bosqichga erishish sanoqli insonlarga nasib etgan. SHarq tasavvufi tarixida mutasavvuflikda YUsuf Hamadoniy nomi juda mashhur bo'lgan va yassaviya, kubraviya, naqshbandiya tariqatlarining ildizlari ham o'sha ma'naviyat chinorining bosh tomiriga borib taqaladi. Mazkur mo''jaz ilmiy risola oldida tasavvuf ta'limotining muhim nazariy asoslarini omma e'tiboriga sodda usulda tushuntirib berish bosh maqsad qilib olingan. Risolaning ahamiyatli jihatni bugun so'fiylikni da'vo qilayotgan shaxslar

³³ Ҳасан Пўлатов, Мамаджон Маматов. Tasavvuf tarihindan lavҳалар. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Milliy kutubxonasi нашриёти, Тошкент — 2011.

oilasini oylab mablag'siz, bolalarini tarbiyasiz qoldirgan holda "pir"ning xizmatini qilib yurayotgan, birovning ehsoni bilan kun kechirishni ijtimoiy illat deb bilmaydigan, soxta taqvodorlar ham paydo bo'lishi oldini olish va bu holat islom ta'limotiga zid ekanligini ta'kidlashdan iboratdir. SHuningdek, soxta paydo bo'layotgan tariqatchilar jamoasi a'zolarining yasama tishli imom orqasidan namoz o'qimaslik, namozdan keyin Qur'on tilovatini makruh, qo'lni yuvgandan keyin artish mumkin emas, chap qo'l bilan sindirilgan nonni eyish mukin emas, deb asossiz da'vo qilish musulmonlar ichida ixtilofga sabab bo'lmoqda. Tariqatchilarning jamoa tadbirlarida ishtirok etmasligi, farzandlarini maktabda dunyoviy ilm olishiga mone'lik qilishi jaholatga qaytish bo'lib, bunday shaxslar kelajakda jamiyat uchun foydasiz unsurga aylanib borishning oldini olish bilan ularga din va tasavvuf haqida ma'lumot berishdan iborat. Eng muhim maqsad diniy ekstremizm, g'oyaviy qoparuvchilikka yo'l qo'ymaslik. Tasavvuf ta'limotini o'rghanishdan maqsad g'oyaviy imunitetni mustahkamlash, diniy og'machilik va separatizm oldini olish vazifasi kuzlangan.

Dinimizda nafshi poklash, inson o'zini-o'zi tergab, ertangi kunga nima tayyorlaganiga nazar solib turishi o'ta muhim ishlardan hisoblanadi. Nafs tarbiyasi eng hassos mavzularidan biri bo'lib, bu mavzuda ko'plab olimlar, tariqat mashoyixlari so'z yuritganlar, qator kitoblar va risolalar bitganlar. Xalqimizda "Mening nafsim balodir, yongan o'tga soladir" degan maqol bor. Darhaqiqat, kishi nafsinu tarbiya qilmas ekan, oqibati ayanchli bo'ladi. Shu kungacha o'tgan solih bandalar barcha

yaxshiliklarning asosi nafsni tarbiya qilish, barcha yomonliklarning asosi esa unga tobe bo‘lishda ekanligini ta'kidlaganlar.

Nafs insonni zavq va zavq va'dalari bilan bog'laydi. Haqiqat shundaki, hech kimni uyat hissi, doimiy istak va oqibatlaridan qo'rqish tashlab ketmaydi. Kishi tirik ekan, nafsi bilan kurashishda mag'lub bo'lmasligi lozim. Kishi nafsini jilovlash uchun nafsni tarbiya qilgan zotlarga yaqin yurishi va ilm o‘rganib, unga amal qilmog‘i zarur.

Hasan Basriy rahmatullohu alayh aytadilar: « Nafsga nasihat qilib yurgan va o‘zini tergab turish odati bo‘lgan banda doimo yaxshilikda bardavom bo‘ladi.

Qur’oni karimda nafs uch xil sifat bilan kelgan:

Xotirjam nafs – Rabbisining toati va amrlariga sokin, uning muhabbatи va bandaligiga xotirjam bo‘lgan nafsdir.

Malomatchi nafs – qo‘ldan boy berilgan yaxshilik va savoblar uchun egasini malomat qiluvchi nafs.

Yomonlikka buyuruvchi nafs – egasini shahvatlar va botil narsalarga undovchi nafs. Aslida nafs johil bo‘lib, tarbiya va poklash natijasida Alloh taoloning inoyati bilan xotirjam nafsga aylanadi.

Nafsni poklash natijasida inson ikki dunyo saodati, qalb xotirjamligi hamda din va toat-ibodatda sobitlikka erishadi.

Tassavuf islom g’oyasi bilan ana shu niqtada to’qnashadi va insonga to’gri yo’l topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. –T: Fan, 1965.
2. Bertels E.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. – M.: Nauka, 1995. – S. 54.
3. Vohidov R. Xoja Ismat-zullisonayn shoir/ Yillardan qolgan ma’naviy yodgorlik: Ilmiy maqola, taqriz va xotiralar to’plami. –T. : Zarqalam - 2006. 21 b.
4. Po’latov H., Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, –T.: — 2011.
5. Komilov N. Tasavvuf. –T.: Movarounnahr. O’zbekiston, 2009, 245-6.
6. Narinbaev A. Izb.proizv. Bishkek. «Ilm», 2004. s. 202.
7. Ishoqova Z. Najmiddin Kubro. Toshkent, Abu matbuot-konsalt. 2011, 13-14 b.
8. So’fiylik ta’limotining O’rta Osiyoda paydo bo’lishi tarixi. Mir Arab Oliy madrasasining rasmiy veb sayti. 2156, 12.03.2018
9. Kattaev K. “Tasavvuf allomalari” –T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 320 b.
10. Krjimskiy A. Istoriya Persii, eyo literatury i dervisheskoy teosofii. – M.: Nauka, 1971.
11. SHaropov SH. SHayx SHibliy kim bo’lgan? “Hurriyat” gazetasi, 2009, 128-129 b
12. Falsafa asoslari. – T.: “O’zbekiston” Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi, 2005
13. Falsafa. Qisqacha izohli lug’at. “SHarq”, –T.: 2004, 102 b.

14. Xayrullaev M.M. «Farabi (epoxa i uchenie). –T., «Uzbekistan», 1975. s. 167.
15. G’azzoliy Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad. «Ihyou ulumiddin», «G’afur G’ulom» nashr. –T.: 2014 , 2- 512 b.
16. G’azzoliy, Attor, Ibn Arabiy, 1 Iz istorii sufizma: istochniki i praktika (pod red. akad. M.Xayrullaeva. –T.: «Fan», 1991. s. 16.
17. Hayitmetov A. SHarq adabiyotinig ijodiy metodi. –T,: “Fan”, 1970.

Mundarija

So'z boshi
Kirish
Tasavvuf haqidagi ta'rif va tavsiflar
Hoja bahouddin naqshband o'g'itlari
Xulosa

RAMAZON BOBOKALONOV

NAFSGA QARSHI ISYON

